

ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA MADANIYATLARARO MUNOSABATLAR UYG'UNLIGI VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI
TAKLIFNOMA VA DASTURI



BUXORO
2025-YIL 27-MAY

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA
MADANIYATLARARO
MUNOSABATLAR UYG'UNLIGI
VA TARAQQIYOT
TENDENSIYALARI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MAQOLALAR TO'PLAMI

2025-yil 27-may

BUXORO – 2025

4. Жарылкапов, У. Б., & Жолдасов, А. (2022). ТАКТИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА БОРЦОВ ЖЕНЩИН. In Развитие отраслей АПК на основе формирования эффективного механизма хозяйствования (pp. 532-534).

5. Jarilkarov, U. B. (2024). 18-20 YOSHLI MALAKALI ERKIN KURASHCHILARNING UMUM VA MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIKLARINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI. Журнал «Вестник физической культуры и спорта» Нукусского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта, 1(2), 47-57.

6. Жарылкапов, У. Б. (2023). методы повышенные силовой подготовки борцов вольного стиля средствами тяжелой атлетики. Журнал «Вестник физической культуры и спорта» Нукусского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта, 1(1), 226-226.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONLIK “MEHNAT ARMIYACHILARI”NING MADANIY FAOLLAGI

*Kurbanov Xurshid Raupovich,
Navoiy davlat universiteti
dotsenti, Tarix fanlari nomzodi.*

Sobiq Ittifoq Davlat Mudofaa Qo‘mitasining 1942-yil 14-oktabrdagi №2414-son “o‘ta mahfiy” qarori bilan O‘zbekistondan 150 ming kishi Ural hududlaridagi ishlab chiqarish va sanoat korxonalariga ishlash uchun safarbar etildi. Ular 110 dan ortiq ishlab chiqarish, qurilish va sanoat obyektlarida og‘ir mehnat qildilar. [1]

Safarbar etilganlar orasida ommaviy-madaniy tadbirlar, ayniqsa targ‘ibot-tashviqot tadbirlari o‘tkazish ham yo‘lga qo‘yilgan. Bu tadbirlarga VKP(b) partiya qo‘mitalarining yo‘riqchilari va targ‘ibot-tashviqot bo‘limlari boshliqlari mas‘ul bo‘lib, byuro va plenumlarga hisobot berib borilgan. Tabdirlarda o‘z uyidan uzoqda bo‘lgan ishchilarga mehnat samaradorligi va majburiyati, jahon urushida g‘alaba qilish uchun mehnat qilish lozimligi tushuntirilib, millatlarning an‘ana, odatlari, yashash tarzi, ularning ma‘lumot darajasi, tilni bilishi va boshqa qadriyatlar birmuncha inobatga olingan. Bu kabi tadbirlar asosan, 1943-yilning bahoridan har bir yotoqxona yoki qo‘rg‘on hududida tashkil qilinadigan milliy choyxonalarda o‘tkazilgan. Uchrashuv va suhbatlar samovar, ko‘k choy ustida, sharq an‘analariga binoan tashkil qilinib, ishchilardan tuzilgan milliy havaskorlik jamoalarining chiqishlari ham bo‘lib turgan. Bu vaqtda ko‘plab qurilish zavodlarida mahalliy choyxonalar tiklangan. Masalan, Chelyabinskmetallsanoati qurilish boshqarmasi №5-qurilish otryadida ishlagan mehnat armiyachilari uchun “Qizil choyxona”lar ochilgan [2].

Choyxonalar nafaqat dam olish joyi balki, mamlakat hayotida ro‘y berayotgan voqea va yangiliklardan xabardor bo‘ladigan, hatto badiiy adabiyotlarni mutolaa qiladigan doimiy joyga aylangan. Mehnat armiyachilarining borayotgan harbiy-siyosiy jarayonlarni milliy tillarida eshitish va o‘qishlari uchun Chelyabinsk viloyati korxonalari nomiga O‘zbekistondan har oyda gazetalar yuborilgan.

Gazetalardan tashqari Janubiy Uralning 17 ta korxonasining 55 ta kutubxonasida O‘zbekistonda Ikkinchi jahon urushi yillarida nashr qilingan davriy adabiyotlardan mavjud bo‘lgan. 1943-yilning may oyidan boshlab o‘zbekistonlik mehnat armiyachilari ishlaydigan Ittifoqning qolgan viloyatlariga jami 7460 nusxada o‘zbekcha “Qizil O‘zbekiston”, hamda 1500 nusxada rus tilidagi “Pravda vostoka” gazetasi yuborilgan [3].

Bu davrda hududda mahalliy davriy nashrlar ham chop etilib, “Chelyabinskiy rabochiy”, “Magnitogorskiy rabochiy”, “Elektrosplav”, “Za stalinskiy metall”, “Orskiy rabochiy”, “Gvardeyets truda” kabi gazetalar, bundan tashqari, “Chelyablag” lageri aholisi uchun “Madaniy-tarbiyaviy bo‘lim byulleteni” nashr qilingan. Shuningdek, mehnat armiyachilari turadigan yotoqxonalarda milliy tillarda devoriy gazetalar chiqarish ham urf bo‘lgan.

Davriy matbuotdan tashqari o‘zbek, tojik va turkman tillarida grammafond plastinkalarini eshitish ham mumkin edi [4].

Ommaviy-targ'ibotlarni jonlantirish va ta'sirchanligini oshirish maqsadida "rus tilini biladigan o'zbek, qozoq, tojik va boshqa millatlar orasidan targ'ibotchilar va ommaviy tadbirlarni olib boruvchilar shakllantirilgan". Ular uchun tashkil qilingan ikki haftalik o'quv kurslarida "O'zbekiston mehnatkashlarining jahon urushida ishtiroki haqida", "Ittifoq xalqlari do'stligi", "Stalin Urali – Qizil Armiyaning qudratli arsenali" kabi mavzularda ma'ruzalar asosida korxonalarda o'zbek va qozoq targ'ibotchilari uchun qisqa muddatli seminarlar o'tkazilgan. Mehnat armiyachilari orasidan targ'ibotchilar va ommaviy ishlarni olib boruvchilarni tayyorlash uchun VKP(b) Chelyabinsk viloyati partiya qo'mitasining targ'ibot va tashviqot bo'limi 54 soatlik dastur ishlab chiqib, uning 40 soati ma'ruza va 14 soati suhbat uchun ajratilgan.

Ommaviy-siyosiy targ'ibotlarni samarali bajarish maqsadida tayyorlangan ayrim ma'ruzachilar hatto asosiy ish joylaridan holi qilinib, ishlab chiqarish ishlaridan ozod qilingan. 1944-yilning martiga kelib Chelyabinsk viloyatining 19 ta korxonasida 23 ta ishdan ozod qilingan targ'ibotchi faoliyat yuritgan. Chkalov viloyati Novotroitsk sanoat maydonidagi mehnat jamoalarida qozoq va o'zbek millatiga mansub bo'lgan 44 nafar targ'ibotchi ishlaganligi, shular jumlasidan.

VKP(b) MQ ko'rsatmasi bo'yicha Janubiy Uraldagi targ'ibot ishlarida O'rta Osiyo kompartiyalari vakillari ham jalb qilingan. VKP(b) MQ kotibiyatining 1943-yil 10-maydagi qaroriga muvofiq, O'zbekistondan 29 nafar partiya xodimlari tanlab olinib, ular bilan maxsus seminar o'tkazilib, asli o'zbekistonlik bo'lgan mehnat armiyachilari bilan siyosiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish uchun Sverdlovsk, Chelyabinsk va Chkalov viloyatlariga jo'natilganlar [5].

1944-yilning birinchi choragida Chelyabinsk viloyati korxonalarida Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston kompartiyasi MKning uchtdan vakili va Qirg'iziston kompartiyasi MK ning 5 nafar vakili ushbu ishlarda band bo'lgan. Safarbar etilgan o'rta osiyolik ishchilar bilan joylarda ish olib borishda O'rta Osiyo respublikalarining mashhur bo'lib ulgurgan va o'quvlarida 1000 nafargacha ishchilar bo'lgan Faxriddinov kabi voizlar nomlari mashhur bo'lgan. Ular orasida, qirg'iz Fotima Mamiraliyeva, turkman D.Xusimavoiz, o'zbek Yusupov, o'zbek va qozoq tillarini biladigan Selimonov kabilarni sanash mumkin [6].

Shunga qaramasdan barcha korxonalarda ham bu kabi tadbirlar, kitob mutolaasi va matbuotchi bilimdonlar o'quvlari tashkil qilinmagan. Jumladan, "Magnitstroy" trestida mehnat armiyachilarining yotoqxonolari va choyxonada doimiy biriktirilgan targ'ibotchilar bo'lmaganligi sababli mehnatkashlar orasida targ'ibot ishlari olib borilmagan. Shuningdek, Mednogorsk shahrida sulfat kislota zavodida ham mehnat armiyachilarining yotoqxonalarida siyosiy-tarbiyaviy ishlar olib borilmasligi va gazetalar o'qilmasligi aniqlangan. Chkalov parovoz ta'mirlash zavodida siyosiy-targ'ibot ishlariga Qizil armiya harbiy xizmatchilari jalb etilgan. Ular 1943-yilning aprel-avgust oylarida ishchilari bilan yigirma olti marta "urush kunlarida Ittifoq xalqlarining do'stligi - g'alabamiz garovi", "joriy holat to'g'risida" kabi mavzularida suhbatlashilgan. Har bir chiqishlarda o'rtacha 200 nafar O'zbekiston va Qozog'iston ishchilari ishtirok etganliklari manbalarda qayd etilgan. [7].

Bu kabi holatlar "Yujuraltyajstroy" trestining №516-zavod qurilishida ishlayotgan o'zbek va qozoqlar orasida ham tashkil qilinmagan, milliy tillardagi gazetalar yetib bormagan, sovet-german frontidagi harbiy harakatlar to'g'risida suhbatlar o'tkazilmagan.

Madaniy-oqartuv ishla orasida qurilish otryadlari klublarida milliy teatr-musika to'garaklari faoliyati ham yo'lga qo'yilganligini alohida ta'kidlash lozim. Mehnat armiyachilari zich yashaydigan joylarda o'z milliy musiqa asboblari, chiqishlariga ega bo'lgan havaskorlik jamoalari tuzilgan. Bunga Chelyabinsk qurilish boshqarmasining №5-qurilish otryadini misol qilish mumkin.

O'rta Osiyo mehnat armiyachilaridan tashkil topgan milliy havaskorlik ijodiy jamoalari qurilish va sanoat korxonalaridagi millatdoshlari madaniy chiqishlar qilganlar. "Magnitstroy" trestida Raimbekov rahbarligida mehnat armiyachilaridan iborat qozoq-o'zbek ansambli tuzilgan. Ijodiy jamoa 1945 yil 23 – 24-mart kunlari Chelyabinsk viloyati sanoat korxonalarining

havaskorlik xorlari va vokalchilari tanlovida ishtirok etgan va hakamlar tomonidan "...milliy qo'shiqlarning eng yaxshi ijrosi va haqiqiy badiiy bezak" nominatsiyasida e'tirof qilingan. 1943-yilning bahorida Chkalov viloyatidagi ishchilar uchun Toshkent respublika filarmoniyasi artistlarining konsert dasturlari namoyishi tashkil qilingan.

Bundan tashqari Chelyabinsk, Kopeysk, Zlatoust va Magnitogorskda mehnat qiladigan ishchilar uchun "Azamat", "Nasriddin Buxoroda" filmlari namoyishi ham tashkil qilingan.

1944 -ilda Chelyabinsk'dagi ishchilar uchun zavod Madaniyat saroyida o'zbek san'atkori Tamaraxonim ishtirokida konsert-uchrashuvi ham tashkil qilingan.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, 1941–1945-yillar davomida O'zbekistonlik "mehnat armiyachilari" o'rtasida olib borilgan targ'ibot-tashviqot ishlari Ikkinchi jahon urushi davrida Ittifoqining barcha aholi qatlamlari orasida tashkil qilingan keng miqyosdagi tadbirlarning kichik bir qismi bo'lgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. GARF (Rossiya Federatsiyasining Davlat arxivi). Fond - 9517, ro'yxat -1, ish-26, 28-31-varaqlar.
2. OGACHO (Chelyabinsk viloyati birlashgan davlat arxivi). P-288-fond, 8-ro'yxat, 261-yig'ma jild, 56-varaq.
3. RGASPI (Rossiya ijtimoiy-siyosiy tarixi davlat arxivi). 17-fond, 122-ro'yxat, 50-yig'ma jild, 14-varaq.
4. RGASPI. 17-fond, 122-ro'yxat, 50-yig'ma jild, 38, 44-varaqlar.
5. RGASPI. 17-fond, 122-ro'yxat, 50-yig'ma jild, 14-varaq.
6. SDNIOO (Orenburg viloyati Markaziy xujjatlar davlat arxivi). 371-fond, 7-ro'yxat, 25-yig'ma jild, 33-varaqning orqa tomoni.
7. SDNIOO. 371-fond, 8-ro'yxat, 50-yig'ma jild, 61-varaq.

OLIY TA'LIM MUASSASASI PEDAGOGLARINING GENDER TENGLIGINI TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI.

G.Roziqova

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasasi pedagoglarining gender tengligini ta'lim jarayonida takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Oliy ta'lim muassasalari pedagoglari o'rtasidagi gender tengligi ta'limning sifatini oshirish, jamiyatda tenglikni ta'minlash va gender asosidagi kamsitishni kamaytirishda muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlari: Oliy ta'lim, pedagoglar, gender tengligi, ta'lim jarayon, pedagogik malaka jamiyatda tenglik, ayol va erkaklartengligi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida gender tengligi masalasi ta'lim tizimlarida dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Oliy ta'lim muassasalarida gender tengligini ta'minlash nafaqat jamiyatdagi ijtimoiy adolatni kuchaytirish, balki ta'lim sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Pedagoglar o'quv jarayonida nafaqat bilim beruvchi, balki ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni shakllantiruvchi shaxslar sifatida katta ahamiyatga ega. Shuning uchun, oliy ta'lim muassasalarida gender tengligini ta'minlash pedagoglarning o'zaro munosabatlari, pedagogik yondashuvlari va talabalarga bo'lgan munosabatlarida qanday namoyon bo'lishi lozimligi kabi masalalar jiddiy e'tiborni talab qiladi. Oliy ta'lim muassasasi pedagoglarining gender tengligini ta'lim jarayonida takomillashtirish, jamiyatda gender tengligini rivojlantirish va pedagogik faoliyatda ayollar va erkaklar o'rtasidagi teng imkoniyatlarni yaratish maqsadida amalga oshiriladigan jarayonni anglatadi.

Gender xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi nafaqat shaxsiy va oilaviy darajadagi, balki jamiyatdagi munosabatlarni belgilovchi hamda ular tomonidan belgilanuvchi ijtimoiy model bo'lib, xotin-qizlar va erkaklarning ijtimoiy rollariga muvofiq bajarishlarini ham nazorat qiladi. Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 18-moddasida xotin-qizlarning barcha sohalarda erkaklar bilan

<i>Ro'zimboyeva Ozoda G'olib qizi</i>	
TALABALARNING IJTIMOIYLASHUVI VA O'QUV FAOLIYATIDAN QONIQLASHIGA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING TA'SIRI: SHAXS TIPLARI MISOLIDA	502
<i>Jo'rayeva Iqbolxon Po'latovna</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING FUQAROLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	504
<i>Maxmudova Malohat Mustahqim qizi</i>	
ВЛИЯНИЕ КУЛЬТУРНОГО КОНТЕКСТА НА ОБУЧЕНИЕ ХОРОВОМУ ДИРИЖИРОВАНИЮ В РАМКАХ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	506
<i>Мирзабек Ахатов,</i>	
<i>Шерзод Шамсиев,</i>	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INSTITUTSIONAL YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI VA DOLZARB MASALALARI.....	508
<i>Ibragimova Shaxnoza Tulqinovna</i>	
OLIY TA'LIMDA ILM-FANNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR IJODKORLIGINI OSHIRISH ZARURATI VA IMKONIYATLARI.....	510
<i>B. K. Rahmatova</i>	
BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDAGI ERKIN KURASHCHI QIZLARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI NAZORAT QILISH	512
<i>Ermatova Dilnoza Rashitovna</i>	
IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEKISTONLIK "MEHNAT ARMIYACHILARI"NING MADANIY FAOLLIGI.....	515
<i>Kurbanov Xurshid Raupovich</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASASI PEDAGOGLARINING GENDER TENGLIGINI TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI.	517
<i>G.Roziqova</i>	
INGLIZ TILINI O'QITISHDA PRAGMADIDAKTIKANING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	518
<i>Yeshanov Marat Urazaliyevich</i>	
OLIY TA'LIMDA ILM-FANNI YANADA RIVOJLANTISHI - TALABALAR MUSTAQIL DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISH ASOSI.....	522
<i>Umirova Navruza Mamasoliyevna</i>	
ИЛМ - ХАЁТНИ АНГЛАШ БОСИТАСИ	524
<i>C.C.Авезов,</i>	
OLIY TA'LIM REKLAMASI, REKLAMA AGENTLIKLARI FAOLIYATIGA KREATIV YONDASHUV MASALASI.	525
<i>Mirzayev Siddiqbek Hamza o'g'li.</i>	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHNING MUHIM VAZIFALARI VA ULARNI QO'LLASHNING AHAMIYATI	527
<i>Narzilloeva Manzura Shuxrat qizi</i>	
OLIY TA'LIMDA PEDAGOGIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISHGA QARATILGAN JARAYON MAZMUNI.....	529
<i>Baxramova Madina Rasulovna</i>	
ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA ILM-FAN: USTUVOR VAZIFALAR VA KELAJAK YO'NALISHLARI	531
<i>Naimova Nodira Olimovna,</i>	
ZAMONAVIY TA'LIMNING RIVOJLANISHIDA PARADIGMAL YO'NALISHLAR	533
<i>Baxramova Madina Rasulovna</i>	

CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIMDA TALABALAR HARBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR: NAZARIY TAHLIL VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	535
<i>Valiyev Abdurafik Abduganiyevich</i>	
O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA PSIXOLOGIK ASOSLAR: ILMIY-NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	537
<i>Abduraxmanov Sherzod Nazarbayevich</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KASBIY KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	539
<i>Abloqulova Mohinabonu Alisher qizi</i>	
BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH: NAZARIY ASOSLAR VA INNOVATSION AMALIYOTLAR	541
<i>Boboyeva Dilnoza Ochilovna</i>	
PEDAGOGIK JARAYONDA INTERFAOL METODLARNING QO'LLANILISHI BO'YICHA ILG'OR TAJRIBALAR.....	542
<i>T.H.Olimov</i>	
<i>D.Sh.Ibotova</i>	
TASVIRIY FAOLIYAT ORQALI KICHIK YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	545
<i>Eshova Dilbar Shonazarovna</i>	
O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM VA MOTIVATSIYANING ROLI	548
<i>Akramova Farangiz Ravshan qizi</i>	
TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH.....	551
<i>Hakimova Nargiza Subhonqulovna</i>	
<i>Namozova Farida Farrux qizi</i>	
TALABALARNING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISHNING DIDAKTIK ASOSLARI	552
<i>Nabiyeva Farog'at Maxmudovna</i>	
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA FAN TARAQQIYOTINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	556
<i>E.A. Fozilov</i>	
TALABALARDA QAROR QABUL QILISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI.	557
<i>Rajabova Go'zal Zarifovna</i>	
PEDAGOGIK TA'LIM JARAYONLARIDA "LIFELONG LEARNING" KONSEPSIYASI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHISI SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI	559
<i>Hakimova Nargiza Supxonovna</i>	
KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF TA'LIM JARAYONIDA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH METODIKASI (JISMONIY TARBIYA FANI MISOLIDA)	562
<i>Ibragimova Aziza Avaz qizi</i>	
SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI O'QUV-TARBIYA JARAYONINI LOYIHALASHGA TAYYORLASHNING METODIK YONDASHUVLARI	565
<i>Ikramova Billura Muxamadovna,</i>	
SHAXSGA YONALTIRILGAN O'QITISH TEXNOLOGIYALARINING MOHIYATI VA AFZALLIKLARI.....	568
<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i>	